

Muhammad Rahim ibn Muhammad Hakimbiy



Muhammad Rahim ibn Muhammad Hakimbiy

(1709-1758 yil 24 mart),

(1756-1758)

Muhammad Rahim otaliq, mang'itlar sulolasining asoschisi, qushbegi, 1756-1758 yillarda rasman Buxoro xoni (1747 yildan amalda), otasi – **Muhammad Hakimbiy**ning ko'magi bilan ashtarxoniy hukmdor *Abulfayzxon* saroyida bosh vazirlik lavozimida xizmat qilgan. Eron shohi *Nodirshoh*ning Buxoroga hujumidan keyin uning mamlakatda mavqei yanada oshgan va *Abulfayzxon*ning qiziga uylangan. Buxoroning obro'li kishilardan 12000 nafariga bosh bo'lib, ularni oq uylik sifatida Eron poytaxti – Mashhadga olib kelgan. U 1745 yildagi kattaqo'rg'onlik *Ibodullohbiy* boshchiligida xitoy-qipchoq qavmlari ko'targan isyonni bostirish uchun *Nodirshoh*ning buyrug'iga ko'ra Buxoroga qaytadi va qushbegi- bosh vazir lavozimini egallaydi. Aynan shu paytdan boshlab u Buxoro xonligining amaldagi hukmroniga aylangan. Muhammad Rahimbiy buyrug'i bilan 1747 yilda *Abulfayzxon* Mir Arab madrasasi hujralaridan birida o'ldiriladi. Taxtga *Abdulmo'minxon* (1747-51), *Ubaydullaxon III* (1751-54), *Sherg'oz*i (1754-56) ni o'tqazib, bu qo'g'irchoq xonlar davrida markaziy hokimiyatga bo'ysunishni xohlamayotgan Miyonkol, Nurota, Urgut, Jizzax, O'ratepa, Xo'jand, Toshkent, Shahrizabz, Boysun, Hisor, Qubodiyon va boshqa bekliklarini to'rt yil davomida ustiga yurish qilib ularni o'ziga bo'ysuntiradi. Burqut, bahrin, kenagas, qipchoq, yuz, saroy boshqa qavmlarni mamlakatning turli hududlariga ko'chirib xonlikning yaxlitligi va havfsizligi uchun izchil kurashgan. Urushlar tufayli vayron bo'lgan Darg'on kanalini qayta tiklatirgan. Buxoro shahrining mudofaa devori mustahkamlanib, 1752-53 yillarda balandligi ikki metrli yangi devor qurilgan. 1756 yil 16-dekabrda Muhammad Rahimbiy Buxoro

taxtiga rasmiy ravishda xon bo'lib o'tirgach, Buxoroda hokimyat tepasiga yangi sulola – ***mang'itlar sulolasining*** hukmronligi boshlandi va bu sulola mamlakatni 1920 yilgacha idora qilgan.

Muhammad Rahimxon mamlakatda o'zining mutlaq hukmdorligini o'rnatish hamda ichki bosh-boshdoqlikni tugatish siyosatini tutdi. Bunday siyosatdan ko'zlangan maqsad – markazlashgan davlatni tiklash edi. Muhammad Rahimxon bu siyosatni ro'yobga chiqarishga qat'iy kirishdi va barcha mahalliy hukmdorlarni o'z huzuriga chorlab, ularga o'zining asl maqsadini, o'z dasturini ma'lum qildi. Qaysi mahalliy hukmdor markaziy hokimiyatga bo'ysunmasa, undaylarni ayovsiz jazoga tortilishini ogohlantirdi. Xiva xonligidagi siyosiy nizolardan foydalanib, taxtga o'z odamlarini o'tqazgan. Muhammad Rahimxon yirik yer egalarining davlatni boshqarish ishlarida shu vaqtgacha davom etib kelgan aralashuvlarini keskin kamaytirishga erishgan. Shunday bo'lsa-da, u barcha beklklarning markaziy hokimyatni tan olishlariga to'la erisha olmagan. Buxorolik tarixchi *Mirzo Abdulazim Somiy Bo'stoniyning* yozishicha Muhammad Rahimbiy G'ijduvon tumanidan qaytayotganida yo'lda vafot etgan. Buxorodagi Shohrud anhuri bo'yida, Mozor darvozasidagi Abu Bakr tarxon qabristonida dafn etilgan.

2023-11-05 12:01:44